



NAVOIY VILOYATI TOMDI TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 24-oktabr

109-5-75-Q/24

Tomdi tumani hokimligi

Tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2025 yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 20 oktyabrdagi O‘RQ-642-sonli “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 39-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2025 yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024 yil 7 sentyabrdagi 01/00-03/10-9110-son va 26 sentyabrdagi 01/00-03/10-9807-son hamda tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining 2024-yil 2-oktyabrdagi 18/08-01/14-188-sonli xatlarini inobatga olib,

QAROR QILAMAN:

1. Tuman hududida belgilanishi kerak bo‘lgan ish o‘rinlarining eng kam sonini va ularga qo‘yiladigan talablarni aniqlash bo‘yicha maxsus komissiya tarkibi 1-ilovaga, tuman bo‘yicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2025 yil uchun band qilib qo‘yish lozim bo‘lgan korxona, tashkilot va muassasalar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi 642-sonli Qonunning 39-moddasiga asosan tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun xodimlarning o‘rtacha soni 20 nafar va undan ko‘pni tashkil etadigan korxona,

tashkilot va muassasalarda 2025-yil uchun 7 foizgacha miqdorda jami 49 nafarni (2-ilovaga muvofiq) tashkil etadi.

Shu jumladan:

o'n to'rt yoshga to'lmagan bolalari, nogironligi bo'lgan bolalari bor yolg'iz otaga yoki onaga, shuningdek ko'p bolali oilalarning ota-onalari uchun 12,24 foiz 6 (nafar);

umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo'lgan yoshlar, "Mehribonlik" uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun 79,6 foiz 39 (nafar);

nogironlar bo'lgan shaxslar toifasi uchun 4 foiz 2 (nafar);

pensiya oldi yoshidagi shaxslar toifasi uchun 4 foiz 2 (nafar) miqdorida ish o'rinlari zaxirasi belgilansin.

3. Ushbu toifaga mansub shaxslar uchun ish o'rinlari sanitariya-gigiena me'yorlariga va xodim o'z mehnat majburiyatlarini to'siqsiz bajarishini ta'minlaydigan mehnat sharoitlariga, shu jumladan, quyidagilarga muvofiq bo'lishi kerak:

o'n to'rt yoshga to'lmagan bolalari, nogironligi bo'lgan bolalari bor yolg'iz otaga yoki onaga, shuningdek ko'p bolali oilalarning ota-onalar toifasi uchun bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo'yicha majburiyatlar bajarilishini birga qo'shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega bo'lganligini hisobga olgan holda ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo'lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o'rinlari;

umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo'lgan yoshlar, "Mehribonlik" uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari toifasi uchun - ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo'lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o'rinlari;

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo'shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar toifasi uchun - ularning professional tayyorgarligiga mos bo'lgan ish o'rinlari;

nogironlar bo'lgan shaxslar toifasi uchun - o'tkazilgan va xodimga ularning sog'ligi holatini va mehnat faoliyatiga to'g'ri kelmaydigan belgilangan zidliklar hisobga olgan holda mehnat operatsiyalarini to'siqsiz bajarish imkonini beradigan ish o'rinlari;

pensiya oldi yoshidagi shaxslar toifasi uchun - ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo'lgan, yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o'rinlari;

jazoni o'tash muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko'ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxslar toifasi uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o'rinlari;

odam savdosi jinoyatidan jabrlangan shaxslar toifasi uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o'rinlari;

qonunchilikka muvofiq atrofdegilar uchun xavf tug'dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o'rinlari;

oilaviy (maishiy) zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlar (himoya orderi).

4. Ish o'rinlarini band qiluvchi tumandagi korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga:

O'zbekiston Respublikasi "Aholi bandligi to'g'risida"gi 642-son Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrda 965-son qarori bilan tasdiqlangan "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Nizomga (keyingi o'rinlarda - Nizom deb yuritiladi) muvofiq ushbu qarorning ilovasida ko'rsatilgan ish o'rinlari tashkil etilishini ta'minlasin;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ish bilan ta'minlash uchun tashkilot va korxonalar 2024-yil yakunlanishidan 10 kun oldin band qilingan ish o'rinlari umumiy miqdorining kamida 25 foizi my.mehnat.uz web sayti orqali zaxiralaniib qo'yilishini ta'minlansin, shuningdek bu haqda yil boshlanguniga qadar tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limining tumandagi tashkilot va korxonalar my.mehnat.uz web sayti orqali belgilangan ish o'rinlarini zaxiralanganligi to'g'risida xabardor qilsin;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish o'rinlarining qolgan qismini my.mehnat.uz web sayti orqali zaxiraga qo'yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar, ya'ni 2025-yilning birinchi choragi mobaynida ta'minlansin, bu haqda tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limiga birinchi chorak yakunidan keyin 10 kundan kechikmay my.mehnat.uz web sayti orqali ish o'rinlari zaxiralanganligi to'g'risida xabardor qilsin;

tashkilot har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limiga Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl bo'yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to'g'risida axborot taqdim etsin;

tashkilot tomonidan ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlari tayyorligi to'g'risida axborot taqdim etilmasligi, teng darajada zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlarining belgilangan soni hisobiga ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining amalda tayyor emasligi tuman Kambag'allikni qisqartirish va

bandlikka ko'maklashish bo'lim tomonidan tuman hokimining qarori bajarilmasligi sifatida qaralishi lozimligi qayd etilsin;

ushbu qaror ijrosi bajarilmagan taqdirda, korxona, tashkilot va muassasalarning mansabdor shaxslariga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrda 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini band qilib qo'yish tartibi to'g'risida"gi nizomning 22-bandiga muvofiq jarima solinishi belgilansin.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrda 965-son qarori bilan tasdiqlangan nizomga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo'yiladigan ish o'rinlarini tuman hokimi tomonidan belgilangan miqdordan ortiqcha tashkil etgan tashkilotlar ushbu ish o'rinlarini tashkil etishga sarflangan mablag'larining bir qismini tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi bilan tuzilgan shartnoma asosida Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplash huquqiga ega ekanliklari inobatga olinsin.

6. Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (S.Aytbaev) bir hafta muddatda mazkur qarorni tegishli korxona, tashkilot va muassasalarga yetkazsin hamda uning bajarilishi ustidan qat'iy nazoratni ta'minlasin.

7. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2023 yil 16 oktyabrda 70-5-75-Q/23-sonli qarori 2025 yil 1 yanvardan o'z kuchini yo'qotishi belgilab qo'yilsin.

8. Mazkur qaror tuman "Тамды шарьягеги" gazetasida rasman e'lon qilinsin va tuman hokimligining "Tomdi.uz" rasmiy veb saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari O.Madenov va tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i S.Aytbaev zimmasiga yuklansin.

10. Mazkur qaror rasman e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi v.b



O.Umarov

Tomdi tuman hokimining
2024-yil 24-oktabrdagi
109-5-75-Q/24-son qaroriga
1-ilova

**Tuman hududida belgilanishi kerak bo'lgan ish o'rinlarining eng kam sonini
va ularga qo'yiladigan talablarni aniqlash bo'yicha maxsus komissiya**

T A R K I B I

T/r	F. I. Sh	Lavozimi
1.	O.Madenov	Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari-Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'i, komissiya raisi
2.	S.Aytbaev	Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i, komissiya raisi o'rinbosari
3.	K.Xolmuminov	Tuman davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i
4.	E.Jusipbekov	Tuman statistika bo'limi boshlig'i
5.	K.Aldajarov	Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limining ishga joylashtirish va ishsizlarni hisobga olish bo'yicha bosh mutaxassisi, komissiya kotibi

Izoh: komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, ularning o'rniga yangi tayinlangan shaxslar komissiya a'zosi hisoblanadi.

Tomdi tuman hokimining
2024-yil 24-oktabrdagi
109-5-75-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Туман бўйича ижтимоий муҳофазага муҳтож ва иш топишда қийналаётган шахсларни ишга жойлаштириш учун иш ўринларини 2025 йил учун банд қилиб қўйиш лозим бўлган корхона, ташкилот ва муассасалар

РЎЙХАТИ

T/r	Tashkilot nomi	Ularda ishlov- chilar soni	Jami band qilin- gan ish o‘rinlari soni	Shundan								
				O‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironlig i bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningde k ko‘p bolali oilalarnin g ota-onalariga uchun	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta‘lim tashkilotlarin i, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlari ni hamda texnikumlarn i tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar; “Mehribonli k” uylarining bitiruvchilari , shuningdek oliy ta‘lim muassasalari ning davlat grantlari bo‘yicha ta‘lim olgan bitiruvchilari u chun	O‘zbekiston Respublikas i Mudofaa vazirligining , Ichki ishlar vazirligining , Favqulodda vaziyatlar vazirligining , Milliy gvardiyasini ng, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlarid agi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun	Nogiron- ligi bo‘lgan shaxslar uchun	Pensiya- oldi yoshida- gi shaxslar uchun	Jazoni ijro etish muassasalari dan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanil- gan shaxslar uchun	Qonunchili kka muvofiq oilaviy (ma ishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganl ar (himoya orderiga) ega bo‘lgan shaxslar uchun	Qonunchili kka muvofiq atrofdagilar uchun xavf tug‘irmaydi gan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklard an azob chekayotga n shaxlar uchun	Odam savdosidan jabrlangan lar uchun
1.	Tomdi tumani sanitariya-epidemiologik	21	1		1							

	osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati bo'limi											
2.	Tomdi tumani 17 - u m u m i y o'rta ta'lim maktabi	23	1		1							
3.	Tomdi tumani 12-sonli bolalar musiqa va san'at maktabi	25	1		1							
4.	10 - u m u m i y o'rta ta'lim maktabi	26	1		1							
5.	Tomdi tumani Madaniyat va turizm bo'limi	27	1		1							
6.	Tomdi tumani 13 - u m u m i y o'rta ta'lim maktabi	28	1		1							
7.	Tomdi tumani 8-umumiy o'rta ta'lim maktabi	29	1		1							
8.	Tomdi tumani 7-umumiy o'rta ta'lim maktabi	29	1		1							
9.	Tomdi tumani 5-umumiy o'rta ta'lim maktabi	29	1		1							
10.	Tomdi tumani 16 - u m u m i y o'rta ta'lim maktabi	30	1		1							
11.	Tomdi tumani 9-umumiy o'rta ta'lim maktabi	30	1		1							
12.	Oqtog' - Tomdi Davlat qo'riqxonasi	30	1		1							

13.	Tomdi tumani 6-umumiy o`rta ta`lim maktabi	32	1		1							
14.	Tomdi tumani 4-umumiy o`rta ta`lim maktabi	35	1		1							
15.	Tomdi tumani 12 - u m u m i y o`rta ta`lim maktabi	35	1		1							
16.	Tomdi tumani 15 - u m u m i y o`rta ta`lim maktabi	35	1		1							
17.	Tomdi tumani sport maktabi	35	1		1							
18.	Tomdi tumani 1-umumiy o`rta ta`lim maktabi	41	2		2							
19.	Tomdi tumani maktabgacha va maktab ta`limi bo`limi	42	2		2							
20.	Tomdi davlat o`rmon xo`jaligi	52	2	1	1							
21.	Tomdi tumani obodonlashtiris h boshqarmasi	71	3	1	2							
22.	Tomdi tumani yo`llardan foydalanish unitar korxonasi	109	5	1	2		1	1				
23.	Tomdi tumani tibbiyot birlashmasi	364	18	3	13		1	1				
JAMI:		1178	49	6	39	0	2	2	0	0	0	0